

IQTISODIY O‘SISH VA AHOLI TURMUSH SIFATINI OSHIRISHGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR

I.A.Tursunqulov¹, Vahobov Samandar Sariboyevich²

¹Jizzax Sambhram universiteti dotsenti, i.f.f.d. PhD

²Jizzax Sambhram universiteti 2-bosqich magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20292243>

Annotatsiya: Mazkur maqolada iqtisodiy o‘shish va aholi turmush sifatini oshirishga ta’sir etuvchi asosiy omillar ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Jumladan, investitsiyalar, bandlik darajasi, innovatsiyalar, inson kapitali, sanoat va xizmatlar sohasi rivoji, raqamli iqtisodiyot hamda ijtimoiy himoya tizimining iqtisodiy taraqqiyotdagi o‘rni yoritilgan. Shuningdek, aholi farovonligini oshirishda makroiqtisodiy barqarorlik, daromadlar o‘shishi va infratuzilma rivojlanishining ahamiyati asoslab berilgan. Tadqiqot natijasida iqtisodiy o‘shishni jadallashtirish va turmush sifatini yaxshilash bo‘yicha ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: iqtisodiy o‘shish, turmush sifati, aholi farovonligi, investitsiya, inson kapitali, bandlik, innovatsiya, raqamli iqtisodiyot, ijtimoiy himoya, daromadlar, infratuzilma, iqtisodiy samaradorlik, barqaror rivojlanish.

Aholining turmush sifatini oshirish va barqaror iqtisodiy o‘shishni ta’minlash zamonaviy iqtisodiy siyosatning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Turmush sifatini yaxshilashga ta’sir etuvchi omillarni samarali rivojlantirish orqali mamlakat iqtisodiy taraqqiyotini jadallashtirish mumkin. Shu bois iqtisodiy o‘shishning asosiy omillarini aniqlash va ularga ustuvor ahamiyat qaratish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Aholining turmush sifatini oshirish har bir davlatning strategik maqsadi sifatida e’tirof etiladi. Mazkur tushuncha BMT tomonidan ilgari surilgan “Global turmush darajasini aniqlash tamoyillari” asosida keng tavsiflangan bo‘lib, unda insonning munosib yashashi, ijtimoiy himoyasi, sog‘lig‘i, ta’lim darajasi va farovonligi asosiy mezon sifatida qaraladi.

Iqtisodiy rivojlanish kengaytirilgan takror ishlab chiqarish, ishlab chiqarish kuchlari, fan, ta’lim, madaniyat, xizmatlar sohasi hamda inson kapitalining sifat jihatdan takomillashuvi bilan tavsiflanadi. U nafaqat iqtisodiy o‘shish sur’atlarini, balki aholi turmush darajasi va sifatining oshishini ham ifodalaydi. Iqtisodiy rivojlanish jarayonida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar takomillashadi, iqtisodiyotning texnologik tarkibi modernizatsiyalashadi va jamiyat farovonligi yuksaladi. Natijada insonning yashash sharoitlari, o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish darajasi va hayot sifati yaxshilanadi.

Mamlakatlarda iqtisodiy o‘shish sur’atlari turlicha namoyon bo‘ladi. Ayrim davlatlarda yuqori iqtisodiy o‘shish kuzatilsa, boshqalarida esa past darajada saqlanib qolmoqda. Iqtisodiy o‘shish qisqa va uzoq muddatli davrlar kesimida tahlil qilinadi. Qisqa muddatli iqtisodiy o‘shish odatda 1–3 yillik davrni qamrab olib, makroiqtisodiy siyosat va tashqi iqtisodiy konyunktura ta’sirida shakllanadi. Uzoq muddatli iqtisodiy o‘shish esa 5–10 yillik davrni o‘z ichiga olib, ishlab chiqarish omillari hajmi, investitsiyalar, tarkibiy islohotlar va texnologik o‘zgarishlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘ladi.

Turmush darajasi tor ma’noda aholining iste’mol ehtiyojlari qondirilganligi hamda daromad va xarajatlar mutanosibligini anglatrsa, keng ma’noda insonning sog‘lig‘i, ta’lim olish imkoniyatlari, xavfsizlik darajasi va yashash muhitini ham o‘z ichiga oladi. Aholi turmush darajasi odatda to‘kin-

sochinlik, me'yoriy daraja, kambag'allik va qashshoqlik kabi bosqichlarga ajratiladi. Ushbu mezonlar aholi ehtiyojlarini qondirish darajasi va moddiy farovonlik holatini ifodalaydi.

Iqtisodchi olim T.Sh. Shodiyev ta'kidlaganidek, “iqtisodiy rivojlanish” tushunchasi “iqtisodiy o'sish” kategoriyasiga nisbatan kengroq mazmunga ega. Chunki ayrim holatlarda iqtisodiy o'sish kuzatilgan bo'lsa-da, aholining turmush sifati va farovonligi yetarli darajada oshmasligi mumkin. Shu sababli iqtisodiy rivojlanish inson manfaatlarini ta'minlash, yashash sharoitlarini yaxshilash, sifatli ta'lim va tibbiy xizmatlarni rivojlantirish hamda barkamol avlodni shakllantirish kabi omillar bilan chambarchas bog'liqdir.

Iqtisodiy rivojlanish darajasi oshib borgani sari inson ehtiyojlari ham murakkablashib boradi. Bu esa iqtisodiyotda yangi texnologiyalarni joriy etish, innovatsion faoliyatni rivojlantirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va xizmatlar sifatini yaxshilashni talab etadi. Natijada iqtisodiy o'sish sur'atlari tezlashadi va aholi turmush sifati yuksaladi.

Iqtisodiy adabiyotlarda iqtisodiy o'sishning ekstensiv va intensiv turlari ajratib ko'rsatiladi. Ekstensiv iqtisodiy o'sishda ishlab chiqarishga qo'shimcha resurslar jalb etilishi hisobiga mahsulot hajmi ortadi. Intensiv iqtisodiy o'sishda esa mavjud resurslardan samarali foydalanish, innovatsiyalarni joriy etish, mehnat unumdorligini oshirish va texnologik taraqqiyot asosiy omil sifatida namoyon bo'ladi. Zamonaviy iqtisodiyotda aynan intensiv rivojlanish modeli barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashning eng muhim yo'nalishi hisoblanadi.

Bizni fikrimizcha iqtisodiy o'sishni amal qilishi nuqtayi nazaridan ikkita o'ziga xos tomonlari orqali ifodalaymiz (1-jadval).

Turmush darajasi – bu aholi farovonligining, ne'matlar va xizmatlarni iste'mol qilishning darajasi, inson asosiy hayotiy ehtiyojlarining qondirilishi miqdoridir.

Iqtisodiy o'sishning ijobiy tomonlari	Iqtisodiy o'sishning salbiy tomonlari
Makroiqtisodiy barqarorlikning ta'minlanishi	Resurslarning yemirilib borishi
Ishlab chiqarishning rivojlanishi	Ekologik muammolarning yuzaga kelishi
Jahon bozoriga chiqish va xalqaro hamkorlikning kengayishi	Kadrlarni qayta tayyorlash muammolarining ko'payib borishi
Aholining turmush sifatini yaxshilanishi	Urbanizatsiya, aholining asosiy qismi yirik shaharlarga joylashishi
Kambag'allik darajasining kamayishi	Demografiya sohasidagi muammolar
Mehnat munosabatlari va sharoitlarining yaxshilanishi	Daromadlar tengsizligi

1-jadval. Iqtisodiy o'sishning ta'minlanishida yuzaga keladigan ijobiy va salbiy jihatlar

Aholi turmush darajasining muhim indikatorlari, avvalo, aholining daromadlari bilan belgilanadi. Mazkur ko'rsatkichlar aholi farovonligi, iste'mol imkoniyatlari hamda ijtimoiy himoyalanganlik darajasini ifodalovchi asosiy mezonlardan biri hisoblanadi. Turmush darajasini baholashda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan nominal va real daromadlar, daromadlarning tabaqalanish darajasi, nominal va real ish haqi miqdori, o'rtacha pensiya hajmi, yashash minimumi hamda yashash minimumidan past daromadga ega aholining ulushi kabi ko'rsatkichlardan keng foydalaniladi. Shuningdek, ish haqi, pensiya va nafaqalarning eng kam miqdori ham aholi ijtimoiy himoyasining muhim indikatorlari sifatida qaraladi.

Iqtisodiy o'sish va aholi turmush sifatiga ta'sir etuvchi omillar o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, ular iqtisodiy, ijtimoiy, demografik va institutsional omillar tizimi orqali namoyon bo'ladi. Aholi turmush farovonligini baholashda mavjud daromadlar, amaldagi iste'mol hajmi, pul daromadlari, iste'mol xarajatlari hamda jamg'armalar miqdori muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, yalpi ichki mahsulot hajmi, yalpi milliy daromad, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan ishlab chiqarish hajmi, uy-joy bilan ta'minlanganlik darajasi, savdo va xizmatlar hajmi kabi makroiqtisodiy ko'rsatkichlar ham turmush sifatini ifodalovchi asosiy mezonlar sirasiga kiradi.

Aholining demografik holati ham turmush darajasini baholashda muhim o'rin tutadi. Jumladan, tug'ilish va o'lim ko'rsatkichlari, o'rtacha umr davomiyligi, sog'liqni saqlash tizimi samaradorligi hamda ekologik muhit holati aholi farovonligini ifodalovchi bilvosita indikatorlar hisoblanadi. Mazkur ko'rsatkichlar mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi va inson kapitalining sifatini aks ettiradi.

Turmush sifati va farovonlik darajasi ko'plab omillarga bog'liq bo'lib, ular orasida ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalari samaradorligi, ilmiy-texnik taraqqiyot darajasi, innovatsion rivojlanish, aholi bandligi, ta'lim sifati hamda madaniy-ma'rifiy salohiyat alohida ahamiyatga ega. Shu bilan birga, milliy xususiyatlar, davlatning ijtimoiy siyosati va siyosiy barqarorlik ham aholi turmush darajasiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Natijada turmush farovonligi inson hayot faoliyatining turli jihatlarini aks ettiruvchi murakkab ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlar tizimi orqali namoyon bo'ladi.

Turmush farovonligi to'g'risida batafsil ma'lumot olish uchun aholi daromadlari va ehtiyojlari, iste'mol darajasi va tarkibi, uy-joy, mol-mulk, madaniy-maishiy buyumlar va boshqalar bilan ta'minlanganlik darajasini chuqur o'rganish lozim bo'ladi. Shu sababli ishda aholi ehtiyojlari va turmush farovonligiga ta'sir etuvchi omillarni quyida keltirilgan 1-rasm orqali ifodalaymiz.



1-rasm. Aholi ehtiyojlari va turmush farovonligiga ta'sir etuvchi omillar

Aholini turmush sifati va uning turmush farovonligini ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya sifatida quyidagi elementlarga bo'lib o'rganiladi: aholi daromadlari; aholi turmush sifati; aholini ijtimoiy-demografik tarkibi; aholini uy-joy sharoiti, aholini qulay uy-joy bilan ta'minlanganlik darajasi;

mahsulot va xizmatlarni iste'mol qilish; mehnatga haq; qariyalarni ta'minlash; sug'urtalash va boshqalar.

Aholi turmush sifati inson ehtiyojlari va manfaatlarining qanchalik to'liq qondirilayotganligini ifodalovchi muhim ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya hisoblanadi. Mazkur tushuncha nafaqat moddiy farovonlik darajasini, balki insonning yashash sharoiti, sog'lig'i, ta'lim olishi, xavfsizligi, madaniy rivojlanishi va ijtimoiy himoyalanganligini ham o'z ichiga oladi. Shu jihatdan aholi turmush sifati turmush darajasiga nisbatan kengroq mazmun va mohiyatga ega bo'lib, ijtimoiy bozor iqtisodiyotining ustuvor maqsadlaridan biri sifatida qaraladi.

Davlat va jamiyat boshqaruvi bilan bog'liq shart-sharoitlar ham aholi turmush sifatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Yuridik va huquqiy himoya darajasi, davlat boshqaruvi samaradorligi, infratuzilmaning rivojlanganligi, transport, aloqa va kommunikatsiya tizimlarining sifati hamda jismoniy xavfsizlik darajasi insonlarning kundalik hayot sifati bilan chambarchas bog'liqdir.

References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2022). 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi PF–60-son Farmon.
2. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. (2024). O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati bo'yicha statistik to'plam. Toshkent.
3. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. (2024). Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar va iqtisodiy o'sish tahlili. Toshkent.
4. United Nations Development Programme. (2023). Human Development Report 2023/2024. New York: UNDP.
5. World Bank. (2024). World Development Indicators. Washington, DC: The World Bank.
6. Todaro, M.P., & Smith, S.C. (2021). Economic Development (13th ed.). Pearson Education.
7. Abdurahmonov X.X. Aholi daromadlari va turmush sifati. - T.: Ilm Ziyo, 2014, 55 b.
8. Turdimuratov M.M - Turmush darajasini oshirish va kambag'allikni kamaytirish. AGRO ILM jurnali 2022 yil 3-son
9. Turdimuratov Maqsud - Iqtisodiy o'sish va aholi turmush sifatini oshirishga ta'sir etuvchi omillar. Yangi O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy yo'nalishlari: muammo va yechimlar mavzusidagi Xalqaro konferensiya. 6 dekabr 2024 yil.